

Geografiya ta'limida interfaol metodlarni qo'llashning samaradorligi va amaliy jihatlari

Sh.B.Do'stiyeva
I.Sh.Lufilloyev
D.D.Juraxujayev
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada geografiya darslarida interfaol metodlarni qo'llashning dars samaradorligini oshirishdagi ahamiyati batafsil tahlil qilingan. Xususan, "Interfaol metodlar"ning asosiy maqsad va vazifalari, ularni dars jarayonida samarali qo'llash yo'llari hamda erishilgan natijalar ham keltirib o'tilgan. Shuningdek tadqiqotda interfaol metodlarning o'quvchilar faolligi, bilim sifati va dars jarayonining ijodiy tashkil etilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, tanqidiy fikrlash, tushunish, muloqot ko'nikmalari, geografiya ta'limi, kubiklar metodi, insert metodi

Effectiveness and practical aspects of using interactive methods in geography education

Sh.B. Dostiyeva
I.Sh. Lufilloyev
D. D. Jurakhujayev
Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

Abstract: In this article, the importance of using interactive methods in geography lessons in increasing the effectiveness of the lesson is analyzed in detail. In particular, the main goals and tasks of "Interactive methods", the ways of their effective use in the course of the lesson, and the achieved results are mentioned. Also, in the research, it is scientifically based that interactive methods have a positive effect on student activity, quality of knowledge, and creative organization of the lesson process.

Keywords: interactive methods, critical thinking, understanding, communication skills, geography education, cube method, insert method

Kirish. Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ta'lim sohasini tubdan

takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatlari, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, tabiiy fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1]. Shu sababdan dunyoning ilg'or xorijiy mamlakatlari tajribalarini o'rganish va bu orqali ta'lim jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini keng joriy etish bugungi kunning bosh mavzusiga aylanmoqda.

Asosiy qism. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bugungacha bo'lgan davrda an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni olishga o'rgatib qo'yilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zлari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga hatto xulosalarini ham o'zлari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Bunda o'qituvchi fasilitator vazifasini bajaradi [5].

Interfaol metodlar - bu o'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida hamkorlikda bilim olishga qaratilgan pedagogik usullar bo'lib, bunda o'quvchilar faol ishtiok etadi, mustaqil fikrlaydi va o'z bilimlarini amaliyotda qo'llay oladi. Interfaol metodlarning asosiy xususiyati o'quvchilarning faolligi, o'zaro muloqoti va dars jarayonida ijodiy yondashuvni shakllantirishdan iborat.

Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash demakdir. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning hamkorlikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalgalashuvni oshiriladi [11].

Interfaol metodlardan foydalanish darslarda tanqidiy fikrlash, tushunish, muloqot va boshqa shu kabi ko'nikmalarning rivojlanishiga olib keladi (1-rasm).

Tushunishning osonlashishi
Interfaol metodlar murakkab bo'lgan
ma'lumotlarni soddalashtirib osonlashtirish
orqali o'quvchilarning geografiya haqidagi
tushunchalarini ta'minlaydi.

**Tanqidiy fikrlashning
rivojlanishi:** Geografiya
darslarida interfaol metodlar
orqali ma'lumotlarni tahlil
qilish, sharhlash va bir-
birlarini baholashga undash
orqali tanqidiy fikrlash
ko'nikmalarini
rivojlantiradi.




Muloqotning kuchayishi:
Darsda qiziqarli metodlar va
o'yinlardan foydalanish,
ularni mavzuga mos holda
to'g'ri tanlash orqali
o'qituvchi va o'quvchilar
o'rtasidagi muloqotni
yaxshilaydi.

1-rasm. Interfaol metodlardan foydalanish natijalari

Quyida shu kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bir qator interfaol ta'lim texnologiyalari haqida batafsil ma'lumot berib o'tamiz.

Kubiklar metodi - o'rganilayotgan muammo yoki mavzuni har tomonlama ko'rib chiqishga yordam beradigan o'qitish usulidir. Bu usulni qo'llashda har bir tomoniga mavzuni tahlil qilishga undaydigan savollar yoki vaziyatlar yozilgan quticha kerak bo'ladi. Qutichani qo'lida yasash ham mumkin, buning uchun qog'oz yoki kartondan o'lchami o'rtacha 15-20 cm bo'lgan quticha yasaladi va atrofiga qog'oz yopishtiriladi. Keyin esa kubikning har bir tomoniga tanlangan mavzu bo'yicha uni tahlil qilishga qaratilgan savol va topshiriqlar yopishtirib chiqiladi (2-savol). Mavzu hajmi kattaroq bo'lsa bir aylanadan keyin ularni yangi savollar bilan almashtirilishi mumkin.

Kubiklar metodi geografiya darslarining barcha mavzularida qo'llash mumkin. Masalan, iqtisodiy geografiyaga oid bo'lgan Jahonning rivojlangan iqtisodiy tarmoqlari, hamda dunyoning global muammolari va boshqalar.



2-rasm. Kubiklar metodini qo'llash uchun tayyorlangan quticha

Insert metodi (Interactive Noting System for Effective Reading and Thinking) - o'quv matni ustida ishlash jarayonida o'quvchining faollik ko'rsatishi hamda o'z bilimlarini baholash uchun qo'llanadigan usuldir. Mazkur usul odatda yangi ma'lumotlarini o'rganishning dastlabki bosqichida qo'llaniladi. Insert metodi orqali har bir o'quvchining darsdagi faolligi, ularning batafsil va mazmunli o'qishga qiziqishi, sinfdoshlari bilan o'z fikrlarini muhokama qilishi va yozilgan matnni mazmunli o'qish qobiliyatining rivojlanishi uning afzalligini belgilab beradi [3,8].

Mazkur metod geografiya darslari uchun judayam qulay hisoblanadi. Chunki hozirgi davrda hamma o'qigan narsalarini unutib qo'yadi yoki e'tiborsiz ravishda o'qiydi. Quyida ushbu usulning qo'llanilish tartibi "Dunyo okeani" mavzusi milodida keltirib o'tilgan (1-jadval).

1-jadval

Insert metodini qo'llanilish tartibi

Amalga oshirish bosqichlari	Olib boriladigan ishlar
Tayyorgarlik bosqichi	<ul style="list-style-type: none"> ❖ "Dunyo okeani" mavzusiga oid matn tayyorlanadi; ❖ O'quvchilarga quyidagi INSERT belgilar tizimi tushuntiradi: <p>✓ Men bilgan ma'lumot</p> <p>+ Men uchun yangi ma'lumot</p> <p>- Mening fikrimga zid ma'lumot</p> <p>? Tushunmagan yoki aniqlashtirish kerak bo'lgan ma'lumot</p>

Matn bilan ishslash bosqichi	❖ O‘quvchilarga “Dunyo okeani” mavzusida tayyorlab qo‘yilgan matn tarqatiladi; ❖ Har bir o‘quvchi mustaqil ravishda matnni o‘qiydi va har bir jumagara yuqorida tushuntirilgan belgilardan mosimi topib, qo‘yib boradi;
INSERT jadvalini to‘ldirish bosqichi	❖ O‘quvchilar matnni o‘qib chiqqandan so‘ng o‘z belgilarini jadvalga yozadilar;
Muhokama va tahlil bosqichi	❖ O‘qituvchi o‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratadi yoki umumiylar sinf muhokamasini tashkil qiladi; ❖ Har bir guruh yoki o‘quvchi o‘z INSERT jadvalidagi ma’lumotlarni taqdim etadi;
Yakuniy bosqich	❖ O‘qituvchi o‘quvchilar bildirgan fikrlarni umumlashtiradi; ❖ “Dunyo okeani” mavzusidagi asosiy tushunchalar qayta ta’kidlanadi; ❖ O‘quvchilarning aniqlashtirishga muhtoj bo‘lgan savollariga javob beriladi yoki mustaqil izlanishga yo‘naltiriladi

Xulosa. Ko‘plab yangi interfaol metodlarni dars jarayonida qo‘llash ta’lim sifatini oshirishga katta yordam beradi. Interfaol metodlar orqali ta’lim samaradorligi oshadi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, o‘quvchilarda erkin ijodiy fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi va rivojlanadi. Xususan, geografiya darslarida ham interfaol metodlardan samarali foydalanish fanning o‘qitish sifatini oshirish bilan bir qatorda, ta’lim samaradorligini yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sod Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-sod.
2. Do‘sitiyeva S. B., Juraxujayev D. D. GEOGRAFIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA KO’RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI // ILM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO’LLANILISHI. - 2023. - T. 3. - №. 31. - C. 37-40.
3. Eshpulatova Xadicha Muradovna TA’LIMDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARING TURLARI VA AHAMIYATI // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2022. №1A. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-limda-innovatsion-texnologiyalarning-turlari-va-ahamiyati> (дата обращения: 14.12.2024).
4. Juraxujayev D. D. et al. GEOGRAFIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA FINLANDIYA TA’LIM TIZIMINI QO‘LLASH // Экономика и социум. - 2024. - №. 6-1 (121). - С. 183-187.
5. Журахужайев Д. РОЛЬ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ СОВРЕМЕННЫХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ //Предпринимательства и педагогика. - 2023. - Т. 5. - №. 4. - С. 127-134.
6. Lodico M. G., Spaulding D. T., Voegtle K. H. Methods in educational research: From theory to practice. - John Wiley & Sons, 2010.

7. Mukhamedov O. L. et al. Territorial Aspects Of The Development Of Geodemographic Processes In Jizzakh Region //The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. - 2020. - T. 2. - №. 11. - C. 12-16.
8. Qurban niyozov R. Geografiya o‘qitish metodikasi. T.: - “Innovatsiya-Ziyo”, 2022. 230-b.
9. Cohen L., Manion L., Morrison K. Research methods in education. - routledge, 2002.
10. Xamroyeva F. A. Juraxujayev DD Geografiyada fanlararo integratsiya Uslubiy qo‘llanma //Samarqand: SamDU nashriyoti. - 2023. - T. 84.
11. Xamroyeva F. A., qizi Davronova M. A. GEOGRAFIYA DARSLARIDA YANGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI (GEOGRAFIK BOSHQOTIRMA) //INTERNATIONAL CONFERENCES. - 2022. - T. 1. - №. 7. - C. 31-35.